

**AYOLLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHNING BUXORO TAJRIBASI XUSUSIDA
(1991-1999 YILLAR)**

Marifat Kazakova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro davlat texnika universiteti

k.marifat1970@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida Buxoro viloyatida iqtisodiy inqiroz sharoitida ayollar va ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan davlat siyosati, me'yoriy-huquqiy asoslar, tashkil etilgan muassasalar hamda amaliy chora-tadbirlar yoritilgan. Maqolada "Nikoh va oila" maslahatxonasi, "Barkamol qizlar" klubi kabi tuzilmalar faoliyati, ayollarning salomatligini muhofaza qilish borasidagi tashabbuslar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ayollarni kasbga tayyorlash kurslari va nogironlik ko'rsatkichlari asosida tahlillar berilgan. Shuningdek, ijtimoiy yordam tizimining bosqichma-bosqich takomillashuvi statistik ma'lumotlar orqali asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ayollar ijtimoiy himoyasi, mustaqillik davri, Buxoro viloyati, davlat siyosati, ijtimoiy islohotlar, kasbga tayyorlash, ayollar salomatligi.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk yillarda iqtisodiy tizimda yuz bergan tub islohotlar natijasida aholining ayrim qatlamlari, ayniqsa ayollar va yoshlar og'ir ijtimoiy holatga tushib qolgan edi. Yirik korxonalar, zavod-fabrikalar faoliyatining to'xtashi, bandlik masalalarining keskinlashuvi, turmush darajasining pasayishi davlat tomonidan ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishni taqozo etdi. Shu sababli, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, ayollar va bolalar salomatligini ta'minlash, ularni yangi kasblarga tayyorlash yo'nalishida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar, farmon va qarorlar qabul qilindi hamda bu borada Buxoro viloyatida amaliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Natija va muhokama. Mamlakatda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining bosqichma-bosqich qaror topishi, shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida korxona, zavod, trikotaj va turli fabrikalar faoliyatining tugatilishi natijasida vujudga kelgan muammolardan aholini himoya qilish maqsadida qator chora-tadbirlar va islohotlar amalga oshirilishini davrning o'zi taqozo qildi.

Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi ijtimoiy qiyin ahvolda qolgan aholi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish yoki kutilayotgan moddiy qiyinchiliklar haqida ogohlantirishdan iboratdir¹. XX asr 90-yillarida dolzarb muammolardan bo'lgan ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar va xotin-qizlar manfaatlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa etib belgilangani holda bu yo'nalishda 20 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini, onalik va bolalikni himoyalash, oila institutini qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat tomonidan kafolatlar hamda imtiyozlarni ta'minlovchi mexanizmlar shakllantirildi².

1991-yil 16-noyabrda qabul qilingan "Respublikaning davlat ta'minotidagi aholisi turmush darajasiga madad berish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-291-son farmoni³ o'tish davrida

¹ Хошимов П.З., Абдуллаева Ш.Е. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг назарий асослари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 9. – Б. 23.

²Турсунов Й., Усманова М., Саттарова Г. Право социального обеспечения. Учебник. – Т., Изд-во «АЛОQАШН», 2008, – С.165-167.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Республиканинг давлат таъминотидаги аҳолиси турмуш даражасига мадад бериш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1991 йил 16 ноябрдаги ПФ-291-сон фармони //

ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar uchun katta yordam bo'ldi. Farmonga muvofiq oylik maoshlarning 40-50 foizga oshirilishi, shuningdek, ish haqi va mehnat nafaqalarining eng kam 200 so'm etib belgilanishi, kam ta'minlangan aholi, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash yo'lidagi dastlabki muhim qadamlardan bo'ldi⁴. Buxoro viloyatida 1991-yildan "Nikoh va oila" maslahatxonasi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda yosh qiz va yigitlarni turmushga tayyorlash, istalmagan homiladorlikdan saqlash va mustahkam oila qurish borasida davra suhbatlari o'tkazilib kelindi⁵. Bu markaz viloyatdagi xotin-qizlarga va yoshlarga ijtimoiy yordam tariqasida tuzilgan dastlabki tashkilotlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada ijtimoiy ta'minotni boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 358-son qarori ijrosini ta'minlash va viloyat aholisining ehtiyojmand qismini ijtimoiy himoyalash uchun 1993-yil 7-oktabrda viloyat hokimining 225-sonli qarori asosida Ijtimoiy ta'minot boshqarmasi tuzildi va uning birinchi raisi etib S.I.Sayfullayev tayinlandi.

1994-yil oktyabr oyidan boshlab, mahalla tizimi orqali iqtisodiy jihatdan nochor va ehtiyojmand oilalarga nafaqa tayinlash hamda ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat yordami amaliyotga joriy etildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1993–1994-yillarda Buxoro viloyati bo'yicha jami 121 788 nafar fuqaro, jumladan, 66 235 nafar ayol mehnat va ijtimoiy nafaqa oluvchilar safidan joy oldi. 1995–1996-yillarda esa ushbu ko'rsatkich mos ravishda 128 279 va 67 805 nafarga yetdi⁶. Mazkur toifadagi aholiga viloyat hokimligi, viloyat xotin-qizlar qo'mitasi hamda tadbirkorlar hamkorligida yillik asosda bir martalik moddiy yordam va oziq-ovqat mahsulotlari ko'rinishida ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan shu yilning 1-oktabridan boshlab kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatila boshlandi. Moddiy yordam oilaning moddiy va mulkiy ahvoriga qarab eng kam ish haqining 1,5 dan 3 barobarigacha miqdorida 3 oy muddatga belgilandi⁷. Ehtiyojmand oilalarni ro'yxatga olish va ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom bo'yicha o'z-o'zini boshqarish organlarida 1995-yilning 8 oyi davomida 81,3 million so'm, jumladan, davlat budjeti tomonidan belgilangan summadan 10,9 million ortiqcha moddiy yordam viloyatning barcha tumanlariga o'tkazib berilgandi⁸.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining dastlabki bosqichi 1994-yil oxirigacha amalga oshirilib, 1995-yildan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning maqsadli va aniq yo'naltirilgan tizimiga o'tildi. Shu jumladan, xotin-qizlar turmush sharoitini yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro viloyatida iqtisodiy tizimda yuz bergan tub o'zgarishlar, jumladan, korxona, zavod va fabrikalarning 60 foizdan ortig'ining faoliyatini to'xtatishi natijasida mehnat bozorida keskin o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida ishsiz xotin-qizlar sonining ortishi bilan bog'liq muammolar vujudga keldi. Statistik tahlillarga ko'ra, 1995–1996-yillarda viloyatda jami 671 500 nafar xotin-qiz istiqomat qilgan bo'lib⁹, ularning 602 nafari ishsizlar safida qayd etilgan¹⁰.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 6-модда., <https://lex.uz/ru/docs/233531>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони Республиканинг давлат таъминотидаги аҳолиси турмуш даражасига мадад бериш чора-тадбирлари тўғрисида // Халқ сўзи, 1991 йил 19 ноябрь.

⁵ О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2024-yig'ma jild, 151-varaq.

⁶ О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2030-yig'ma jild, 7, 8-varaqlar.

⁷ "Кам таъминланган оиларни ижтимоий химоя қилишни кучайтиришга оид тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонида шарҳ // Халқ сўзи. 1994 йил 25 август.

⁸ О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 1112-yig'ma jild, 117-varaq.

⁹ Buxoro viloyat Statistika boshqarmasi joriy arxivi, 1995-1996-yil ma'lumotlari

Respublika miqyosida eng kam ishsizlik darajasi Buxoro viloyatida qayd etilgan bo'lsa-da, mavjud ko'rsatkichni yanada kamaytirish maqsadida viloyat hokimligi hamda xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan turli tadbir va uchrashuvlar tashkil etildi. Shu bilan birga, ayollarni zamonaviy kasb va hunarlar bo'yicha tayyorlash hamda qayta tayyorlash kurslari yo'lga qo'yildi. 1995–1996-yillar davomida ana shunday kurslarda Buxoro shahridan 466 nafar xotin-qiz tahsil olib¹¹, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida ishtirok etish imkoniga ega bo'ldilar.

Buxoro viloyatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning bandligini oshirish hamda kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish yo'lida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Korxona va fabrikalarning yopilishi oqibatida yuzaga kelgan ishsizlik muammosiga qarshi viloyat hokimligi hamda xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan kasbga tayyorlash kurslari tashkil etildi, natijada yuzlab ayollar yangi kasb-hunarlariga ega bo'lishdi. Shuningdek, "Barkamol qizlar" va "Yosh kelinchak" kabi klublar faoliyati orqali yosh qizlarni hayotga tayyorlash¹², sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish hamda pazandalik va uy hamshirasi ko'nikmalarini singdirish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. Ushbu tashabbuslar xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutdi.

Kuzatilayotgan muammolardan kelib chiqib, Buxoro shahri, Peshku va Qorako'l tibbiyot kollejlari, viloyatning deyarli barcha tumanlarida kasb-hunar kollejlari va maktablari faoliyati yo'lga qo'yila boshlandi. Ularda pazandalik, tikuvchilik, uy hamshirasi, kashtachilik, zardo'zilik kabi 10 dan ortiq yo'nalishlarda bilim berila boshlandi. Shuningdek, Buxoro davlat tibbiyot institutida ta'lim sifatini oshirish, ularda viloyat aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kadrlarni yetishtirib berilishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilib, xorijdan mutaxassislar ham jalb qilindi.

1996-1997-yillarda aholining yordamga muhtoj qismini sog'lomlashtirish maqsadida Shveytsariya Qizil Xoch jamiyati bilan aloqalar o'rnatilib, tibbiy jihozlar, bog'lov vositalari va dori-darmonlar olish chora-tadbirlari belgilandi.

XX asr oxiriga kelib, Buxoro viloyatida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko'rsatiladigan sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish maqsadida 15 ta tibbiy-ijtimoiy yordam markazi hamda 19 ta Qizil Yarim Oy jamiyati palatalari tashkil etildi. Shuningdek, Buxoro tumanida 50 o'rinli statsionar kasalxona hamda Jondor tumanida 28 o'rinli moslashtirilgan tibbiyot muassasasi faoliyati yo'lga qo'yildi¹³. Ushbu tibbiyot muassasalariga malakali mutaxassislar hamda viloyatdagi tibbiyot o'quv yurtlarining bitiruvchilari jalb etildi.

1997-yilda "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasining "Ambulans Bens" nomli tibbiyot avtomashinasi brigadasi orqali viloyatning olis va chekka hududlarida istiqomat qiluvchi 2105 nafar bemor, 3677 nafar tug'ish yoshidagi ayol hamda 5002 nafar bolaga malakali tibbiy xizmatlar ko'rsatildi¹⁴.

Buxoro viloyati hokimligi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish kotibiyati tashabbusi bilan 1997-yilda viloyatning tuman, shahar xotin-qizlar qo'mitalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, huquq-tartibot organlari va siyosiy partiyalarning "Ayollar qanoti" hamkorligida oila mustahkamligini ta'minlash va nikohni bekor qilish hollarini kamaytirish maqsadida "Oila va qonun", "Ayol oila farishtasi", "Qizlar millat iftixori", "Ichkilikbozlik va giyohvandlik jamiyat vabosi" kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil qilindi¹⁵. Asosiy maqsad yoshlar ongiga oila muqaddasligini singdirishga qaratildi. Buxoro viloyati bo'yicha 1995-yil

¹⁰ O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2030-yig'ma jild, 17-varaq.

¹¹ O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2023-yig'ma jild, 40-varaq.

¹² O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2028-yig'ma jild, 19-varaq.

¹³ O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-yig'ma jild, 72,73-varaq.

¹⁴ O'zMA, M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-yig'ma jild, 73-varaq.

¹⁵ O'zMA, M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-yig'ma jild, 72-varaq.

11,345 ta nikoh, 851 ta arjim, 1996-yilda 11,069 ta nikoh va 857 ta ajrim qayd qilingan¹⁶. Mahallalarda o'tkazilayotgan "Mahallaning eng yaxshi kelini" va "Ibo malikalari" ko'rik-tanlovlari nafaqat viloyat, balki respublikaning turli hududlarida ham samarali ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 1997-yil viloyatda 12,522 ta nikoh va 814 ta ajralish holati qayd qilinib, o'tgan yilgi 7,7 foizdan 6,5 foziga tushganligini ko'rish mumkin¹⁷. Keyingi yillarda xususan, 2010-yilda viloyatda 12,535 ta, 2011-yilning 9 oyi davomida 12,118 ta nikoh qayd qilindi.¹⁸

Ayollarning ijtimoiy va moddiy ahvolini yaxshilab borish, ularning oila va jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida 1999-yil "Ayollar yili" deb e'lon qilindi va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-fevraldagi 73-son qarori bilan ayollar manfaatlarini himoya qilish va boshqaruv sohasidagi ishtirokini oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqildi.

1999-yil 38 400 ta kam ta'minlangan oilalar qayd etilgan bo'lib, bu mamlakat aholi umumiy sonining 14,5 foizni tashkil qildi. Tumanlar miqyosida esa kam ta'minlangan oilalar soni sezilarli darajada pasaydi va bu ko'rsatkich Romitanda 7,7 foiz, Qorovulbozorda 8,1 foiz, Jondorda 6 foiz, Shofirkonda 6,1 foizga tushdi¹⁹. Bu aholining ijtimoiy va iqtisodiy farovonligi o'sishidan darak berardi.

Xulosa. Mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro viloyatida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va dasturlar ayollar, yoshlar hamda ehtiyojmand oilalar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynadi. "Sog'lom avlod uchun" kabi dasturlar, mahalliy va xalqaro hamkorlikda tashkil etilgan tibbiy va ijtimoiy yordam markazlari, kasb-hunar kurslari orqali ishsizlikni kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish yo'lida muhim qadamlar tashlandi. Bu islohotlar keyingi yillarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хошимов П.З., Абдуллаева Ш.Е. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг назарий асослари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 9. –Б. 23.
2. Турсунов Й., Усманова М., Саттарова Г. Право социального обеспечения. Учебник. – Т., Изд-во «АЛОQACHИ», 2008, – С.165-167.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Республиканинг давлат таъминотидаги аҳолиси турмуш даражасига мадад бериш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1991 йил 16 ноябрдаги ПФ-291-сон фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 6-модда., <https://lex.uz/ru/docs/233531>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони Республиканинг давлат таъминотидаги аҳолиси турмуш даражасига мадад бериш чора-тадбирлари тўғрисида // Халқ сўзи, 1991 йил 19 ноябрь.
5. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2024-yig'ma jild, 151-varaq.
6. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2030-yig'ma jild, 7, 8-varaqlar.
7. "Кам таъминланган оиларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтиришга оид тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонига шарҳ // Халқ сўзи. 1994 йил 25 август.
8. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 1112-yig'ma jild, 117-varaq.
9. Buxoro viloyat Statistika boshqarmasi joriy arxivi, 1995-1996-yil ma'lumotlari
10. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2030-yig'ma jild, 17-varaq.
11. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2023-yig'ma jild, 40-varaq.
12. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2028-yig'ma jild, 19-varaq.
13. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2559-yig'ma jild, 72,73-varaq.
14. О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2559-yig'ma jild, 259-varaq.

¹⁶ О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2559-yig'ma jild, 259-varaq.

¹⁷ Buxoro viloyat xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi, 1997-yil hisoboti // О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2559-yig'ma jild, 72-varaq.

¹⁸ О'зМА, М-170 фонд, 1-ро'yxat, 68-yig'ma jild, 8-varaq.

¹⁹ О'зМА. М-37 фонд, 1-ро'yxat, 2560-yig'ma jild, 145-varaq.

15. Buxoro viloyat xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi, 1997-yil hisoboti // O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-yig'ma jild, 72-varaq.
16. O'zMA, M-170 fond, 1-ro'yxat, 68-yig'ma jild, 8-varaq.
17. O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2560-yig'ma jild, 145-varaq.